

## O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI VA YOZMA ADABIYOTDA METAMORFOZA HODISASINING BADIY-FALSAFIY TALQINI

Ramazonova Go'zal

*Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi arxivchisi*

**Annotation:** *This article provides an in-depth analysis of the artistic, aesthetic, and philosophical nature of metamorphosis in folklore and literature. It examines transformation motifs in folk tales, legends, and epics, as well as symbolic transformations in written literature. The study highlights the relationship between metamorphosis and human consciousness, inner experiences, and social contexts. The mythological roots and modern interpretations of metamorphosis are also explored.*

**Keywords:** *metamorphosis, transformation, folklore, fairy tale, epic, mythology, symbolism, artistic image.*

**Аннотация:** *В статье подробно рассматривается художественно-эстетическая и философская сущность метаморфозы в фольклоре и литературе. Анализируются мотивы превращения в народных сказках, легендах и эпосах, а также символические трансформации в письменной литературе. Особое внимание уделяется связи метаморфозы с человеческим сознанием, внутренним миром и социальными процессами. Освещаются мифологические корни данного явления и его интерпретации в современной литературе.*

**Ключевые слова:** *метаморфоза, трансформация, фольклор, сказка, эпос, мифология, символизм, художественный образ.*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada folklor va yozma adabiyotda metamorfoza hodisasining badiiy-estetik hamda falsafiy mohiyati keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodiga mansub ertaklar, afsonalar va dostonlarda uchraydigan o'zgarish motivlari hamda yozma adabiyotdagi ramziy transformatsiyalar o'rganiladi. Metamorfoza hodisasining inson tafakkuri, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Shuningdek, mazkur hodisaning qadimgi mifologik ildizlari va uning zamonaviy adabiyotdagi talqinlari ilmiy jihatdan yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *metamorfoza, transformatsiya, folklor, ertak, doston, mifologiya, ramziylik, badiiy obraz.*

### KIRISH

Metamorfoza hodisasi insoniyat tafakkurining eng qadimiy va universal unsurlaridan biri sifatida turli madaniyat va davrlarda o'z ifodasini topgan. Bu hodisa dastlab mifologik qarashlar asosida shakllangan bo'lib, inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettirgan. Qadimgi jamiyatlarda inson o'zini tabiatning ajralmas qismi sifatida his etgan va shu sababli

uning hayvon, o'simlik yoki boshqa mavjudotga aylanishi tabiiy hodisa sifatida qabul qilingan. Metamorfoza tushunchasi nafaqat tashqi o'zgarishni, balki ichki, ruhiy va ma'naviy transformatsiyani ham anglatadi. Shu jihatdan u badiiy tafakkurning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodida bu hodisa ko'proq sehri va mo'jizaviy shaklda namoyon bo'lsa, yozma adabiyotda u chuqur falsafiy va kasb etadi.

O'zbek folklorida metamorfoza motivlari juda keng tarqalgan. Ayniqsa, ertaklarda qahramonlarning qushga, hayvonga yoki boshqa shakllarga aylanishi orqali ularning sinovdan o'tishi, qiyinchiliklarni engib o'tishi yoki ma'naviy kamolotga erishishi ifodalanadi. Dostonlarda esa bu hodisa qahramonning ilohiy kuchga ega ekanligini yoki uning o'ziga xos qahramonlik sifatlarini ko'rsatadi.

Bugungi kunga qadar yetib kelgan sehri-fantastik ertaklarning ko'pchiligida evrilish motivi yetakchilik qilishini ko'rishimiz mumkin. Real hayotning sehri-fantastik hodisalar bilan qorishib ketishi "Ilon pari" sehri-fantastik ertaklar to'plamiga kiritilgan "Anqo qush" ertagida to'la namoyon bo'ladi. Ertak Podishohning Anqo qushini o'g'irlab ketishlari bilan boshlanadi. Bu qushni topish uchun yo'lga chiqqan kambag'al yigit sayohat davomida ko'pgina sinovlar va to'siqlardan o'tadi. U chinor daraxtida katta ilonni ko'rib qolib, o'ldirmoqchi bo'lganida, ilon o'zining aslida podshovachcha ekanligi, qirq qiz va bir erkak parilarga yo'liqib, ular uzatgan suvdan ichganidan so'ng ilonga aylanib qolganini aytadi. Ikkinchi turlanish esa, ilonga aylangan bu yigitni pari bir hovuch tuproq vositasida o'z holiga qaytadi. Shundan so'ng o'zi yaralangan kiyik o'z holiga qaytgan yigitni itga aylantirib, maqsadga erishish uchun yo'lga tushishadi va ertak davomida yigit o'z maqsadiga erishgunga qadar sanoqsiz turlanishlar ro'y beradi.

Murodullo Ziyodullo o'g'lidan yozib olingan ushbu 30 sahifali ertakda sanoqsiz sehrgarlik yo'li bilan goh tuproq, goh ko'zgu, goh ilonning mo'ylovi, goh suv, goh xilma-xil taomlar kabi vositalarni ishga solib turlanishlar sodir bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu ertaklarda o'zbek xalqining hayoti, turmush tarzi, orzu-armonlari, kurashi, o'tmishi, falsafiy-estetik qarashlari o'z ifodasini topgan.

Anglashilib turibdiki, bu ertaklar evrilishlar, jazo, o'ch olish kabi yovuz maqsadlarda ham mukofot yoki yordam, ko'mak berish kabi ezgu maqsadlarda ham asosiy badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, turlanishlar ertaklarning qiziqarliligini, davomiyligini ta'minlashga ham adabiy vosita o'laroq xizmat qilganini ko'rish mumkin. Keyinchalik ertaklardan o'sib chiqqan xalq dostonlarida ham metamorfoza motiv sifatida keng qo'llanila boshlandi. Ammo doston va ertaklardagi metamorfozalarning qo'llanish doirasi va vazifasi bir-biridan farq qilmaydi. Har ikki janrda ham, garchi ular hajm jihatdan katta farq qilsa-da, metamorfozani amalga oshiradigan qahramonlar (devlar, parilar, sexrgarlar, ilohiy kuch-qudrat sohiblari) o'zgarmaydi va ular hech qachon asosiy voqelikni tashkil etmaydi, har doim epizodik voqelikda yordamchi unsur siatida amalga oshiriladi.

M.Baxtin ta'kidlaganidek, ibtidoiy folklor xazinasiga oid bo'lgan metamorfozalar keyinchalik, insoniyat tafakkurining evolyutsiyasi, yana-da aniqroq aytganda, ijtimoiy va badiiy idrokning shakllana borishi natijasida yozma adabiyotga ham ko'cha boshladi. Sehri-fantastik

ruhdagi ertak janrining taraqqiyoti uchun, albatta, miflar va uning qobig'ida voyaga yetgan metamorfozalar mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi.

Keyinchalik esa mifologiya bag'rida yetilib, xalq og'zaki ijodida o'zining rivojlanish cho'qqisiga ko'tarilgan metamorfozalarni biz yozma adabiyotda ham uchrata boshladik. Ushbu diffuziyalanish jarayonining ilk namunasini biz turkiy xalqlar adabiyotining buyuk siy mosi hazrat Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" ("Qush tili") dostonida uchratamiz. Mazkur asarning janri doston bo'lgani boisidan ham, u o'zida xalq og'zaki ijodida muhim o'rin tutgan dostonlardagi ko'pgina xususiyatlarni jamlagani holda, sarguzasht tipidagi katta hajmli epik asarlarga xos bo'lgan metamorfoza hodisasini ham singdirgan.

" Bu o'ttizta qushning shuncha ko'p mashaqqat va ranj chekib, bu yerga etib kelganlaridan maqsad ularga Simurg' o'z yuzini ko'rsatib, bu fanolardan ana shunday baqoga erishmoq edi. Ammo ular qayoqqa qarasalar o'zlarini ko'rdilar.

Alloh-Alloh! Bu qanday ajoyib so'zki, Simurg'ni orzu qilgan o'ttizta qush o'zlarini o'sha Simurg' sifatida ko'rdilar!".

A.Navoiy o'zining ijodkor shaxs sifatidagi komil inson haqidagi tasavvufiy-ma'rifiy qarashlarini ushbu majoziy-ramziy xarakterdagi dostonga singdirar ekan, oliy maqomga erishganlikning belgisini jonli va vizual tarzda tasirlash uchun metamorfozadan motiv sifatida foydalanadi. Qushlarning Simurg'ga aylanishi doston syujeti uchun o'zi xos, kutilmagan yechim vazifasini bajaradi. Ammo Navoiy bu evrilish bir onda sodir bo'lganini ko'zda tutmoqchi emas, ular o'zlari ko'zlagan bosqichga etib kelganlaridagina o'zlaridagi evrilishni ko'rgan bo'lsalar-da, bu evrilish ularning botiniy olamida toki birinchi – "talab" vodiysi sari qanot qoqqanlaridayoq yuz bera boshlagan. Riyozotlar chekib, o'z nafs va maishatidan kechib, tanasi ustidan hokim bo'lganlaridagina, ya'ni yetti vodiyni bosib o'tgandan keyingina ularning botinidagi o'zgarish, tozarish, poklanish butkul nihoyasiga yetadi va bu mukammallikni Navoiy Simurg' qiyofasida akslantiradi.

Asar tasavvufiy bo'lgani uchun undagi "evrilish" insonning ichki holati, ruhiy poklanishi, haqiqatga yetishini ifodalaydi. Metamorfozaning mohiyati esa, nafsdan xalos bo'lish, o'zini anglash, ruhiy yuksalish, Haqiqat (Semurg')ni topish jarayonini anglatadi. Qushlar nihoyat o'zlari Semurg' ekanini anglaganida, ma'naviy uyg'onish ro'y bergani, "men kimman?" degan savolga javob topgani ma'lum bo'ladi. Bu esa tasavvufdagi eng oliy metamorfoza ichki o'zlikning yangilanishidir.

Aslida ham, metamorfozalar yozma adabiyotda adabiy uslub sifatida kirib sintezlasha boshlashi bilanoq ularning maqsad va imkoniyatlari, funksiyalari tabiiy ravishda kengayadi. Chunki, metamorfozalar muallifga so'z yoki holat bilan ifodalash mushkul bo'lgan mavhum jarayonlarni, keskin botiniy, ruhiy evrilishlarni, ichki "Men"ning kamolot yoki tanazzulini aks ettirish uchun metamorfozaga asoslangan muayyan shakl va qiyofalar vositasida aks ettirish imkonini beradi. O'zbek adabiyotida ham birinchi bo'lib metamorfoza, ya'ni tur evrilishini qo'llagan hazrat Alisher Navoiy ham bu imkoniyatni to'la his etgan holda, o'zining ijodkor sifatidagi ijtimoiy-falsafiy, tasavvufiy konsepsiyasini aniq va tushunarli yetkazish uchun,

shuningdek, dostonning badiiy-estetik quvvatini yana-da oshirish, jozibadorligini ta'minlash, syujetni qiziqarli tus oldirish uchun ushbu motivga murojaat qilgani ochiq ko'rinadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Fan, 1985.
2. Propp V.Ya. Ertak morfologiyasi. – Moskva: Nauka, 1969.
3. Meletinskiy E.M. Mifologiya nazariyasi. – Moskva, 1976.
4. Attor F. Lison ut-tayr. – Toshkent: Sharq.
5. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2008.
6. Rasulov A. Badiiy tafakkur asoslari. – Toshkent, 2010.